



FUTBOL BO'YICHA O'N YETTI YOSHGACHA BO'LGAN O'ZBEKISTON TERMA JAMOASI A'ZOLARIGA

Aziz farzandlarim!

O'n yetti yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida Saudiya Arabistoni maydonlarida bo'lib o'tgan nufuzli musobaqada muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuksak sovrin — Osiyo kubogini qo'lga kiritganingiz bilan xalqimiz nomidan, o'z nomidan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Sizlar kabi navqiron, azm-u shijoatli yoshlarimizning butun turnir davomida bironta ham mag'lubiyatga uchramasdan, rekord natija ko'rsatib, jonajon Vatanimiz sharafini mardona himoya qilganlari, hech shubhasiz, milliy futbolimiz tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan shonli voqea, desak, to'g'ri bo'ladi.

Ayniqsa, finalda musobaqa mezboni — Saudiya Arabistoni kabi g'oyat kuchli jamoaga qarshi keskin bellashuvda turli bosimlarga qaramasdan, o'n bir o'yinchiga qarshi to'qqiz futbolchi shiddatli kurash olib borganingiz chinakam jasorat va matonat namunasi bo'ldi. Sizlar namoyon etgan yuksak mardlik va mahorat har qanday tahsinga sazovordir.

Musobaqa yakuniga ko'ra, uch nafar iste'dodli va mohir sportchimiz yakka tartibdagi sovrinlar egasi

bo'lgani, jumladan, Ne'matulloh Rustamjonov — turnirning eng yaxshi darvozaboni, Asilbek Aliyev — eng yaxshi to'purari, Sadridin Hasanov — eng yaxshi futbolchisi sifatida e'tirof etilganini ham alohida ta'kidlash lozim.

El-yurtimiz sizlarning timsolingizda doimo oldinga intilib yashaydigan, yuksak marralarni zabt etishga qodir Yangi O'zbekiston yoshlarining eng yorqin vakillarini ko'radi va sizlar bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Mamlakatimizda sportga, jumladan, futbol rivojiga berilayotgan yuksak e'tiborning yana bir amaliy natijasi bo'lgan mana shunday tarixiy g'alaba uchun sizlarga, sizlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onalaringiz va ustoz-murabbiylaringizga chin dildan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Sizlar ushbu g'alabadan ruhlanib, shu yil noyabr oyida Qatarda bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ham Osiyoning g'olib jamoasi sifatida munosib ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Baxt va zafar sizlarga doimo yor bo'lsin, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

PEDAGOGLAR TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARINING USTUVOR YO'NALISHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-aprel kuni maktab ta'limi sifatini oshirish hamda pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida ta'lim tizimi islohotlari ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Bu yilgi Davlat dasturida ham maktablarda sharoitlarni yaxshilash, yosh avlodni bilimli etib tarbiyalash bo'yicha ko'plab vazifalar qo'yilgan.

Bu ko'p jihatdan o'qituvchilarning bilim va malakasiga bog'liq. Yurtimizda 15 ta davlat va 61 ta nodavlat oliyog'ida pedagogika yo'nalishi bor. Lekin ulardagi ilmiy salohiyat atigi 40 foiz atrofida.

Qabullarning katta qismini ijtimoiy yo'nalishlar tashkil etadi. Aniq va tabiiy fanlar bo'yicha pedagoglar tayyorlash juda kam. Talabalarining 40 foizi sirtqi ta'limda o'qiyapti.

Shu bois, Toshkent davlat pedagogika universitetini transformatsiya qilib, O'zbekiston milliy pedagogika universitetini tashkil etish, kejak pedagoglari loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Universitet barcha hududlardagi pedagogika institutlari uchun tayanch oliyog' bo'ladi.

“Yangi O'zbekiston” universitetida 40 dan ziyod chet ellik o'qituvchilar va 30 nafar vatandosh ziyolilarimiz faoliyat yuritmoqda. Talabalar o'zlarining turli yo'nalishlardagi loyihalariga jami 24,3 milliard so'mlik grantlar jalb qilgan. Bu salohiyatdan foydalanib, universitetda muhandislik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, tibbiyot kabi zamonaviy sohalar

mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish, yangi laboratoriyalar ochish rejalari taqdimot qilindi.

Shuningdek, oliyog'ida ilm-fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasini ta'minlash maqsadida Germaniyaning ilg'or tajribasidan foydalangan holda zamonaviy universitet klinikasini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Ta'lim sifatini aniqlashda ham xalqaro uslublar joriy etilmoqda. Bu yil 233 ta maktabdagi 9 ming nafar 15 yoshli o'quvchining bilimi “PISA” xalqaro dasturi orqali baholandi.

Hozirgi kunda 2 mingta maktab yuqori yuklama bilan ishlayapti. Bu yil byudjet hisobidan 112 mingta yangi o'quvchi o'rni tashkil etiladi. Aholi o'sishi hisobiga maktablarga ehtiyoj ham ortib boradi. Shu bois, Islom taraqqiyot bankidan 200 million dollar jalb etib, hududlarda 58 ta zamonaviy maktab qurish rejalashtirilgan.

Tahlillarga ko'ra, maktab yoshidagi bolalarning 80 foizi internet va ijtimoiy tarmoqlarda faol. Ularni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha muayyan ishlar olib borilayapti. Lekin yoshlar ta'lim-tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan, qiziqarli milliy kontentlar yaratayotgan ijodkorlar sanoqli.

Shulardan kelib chiqib, bolalarga xavfsiz axborot muhitini yaratish, milliy kontentlarni ko'paytirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'ZA

QULAY ISHBILARMONLIK MUHITI INVESTITSİYALAR NATIJADORLIGINI TA'MINLAYDI

Davlatimiz rahbariga investitsiya sohasida joriy yil birinchi chorakda qilingan ishlar hamda navbatdagi asosiy vazifalar bo'yicha axborot berildi.

Davlatimizning faol tashqi siyosati va qulay ishbilarmonlik muhiti natijasida investitsiyalar hajmi izchil o'sib bormoqda. Xususan, joriy yil birinchi chorakda 8 milliard 700 million dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qariyb 20 foizga o'sdi.

Bu mablag'lar evaziga energetika, metallurgiya, kimyo, farmatsevtika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, kommunal va ijtimoiy sohalarida ko'plab muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Bunda qo'shilgan qiymat va ish o'rinlari yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birinchi yarim yillik yakuni bilan 18 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirish natijasida

Umuman, 2025-yilda 42 milliard dollar xorijiy

investitsiya jalb etilishi, 81 ta yirik, 8 mingdan ortiq o'rta va kichik loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Mutasaddirlarga har bir loyiha bo'yicha manzilli ishlab, barcha vazirlik, hokimlik va tarmoq rahbarlarini jalb qilib, tegishli masalalarni o'z vaqtida hal etib borish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Hozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlar sharoitida har bir investor bilan yaqindan ishlash, xorijiy sarmoyalar samaradorligini oshirish zarurligi ta'kidlandi. Eng asosiysi — yangi investitsiya loyihalarini tezroq ishga tushirib, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish hamda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish muhimligi qayd etildi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

FUTBOL BO'YICHA O'N YETTI YOSHGACHA BO'LGAN O'SMIRLAR O'RTASIDAGI OSIYO KUBOGI O'YINLARI G'OLIBLARI VA ISHTIROKCHILARINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

O'zining yorqin iste'dodi va professional mahorati, ulkan azm-u shijoati hamda mustahkam irodasini namoyon etib, Saudiya Arabistonda futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan nufuzli musobaqada mislsiz jasorat va matonat namunalari ko'rsatgani, Osiyo kubogini qo'lga kiritib, o'zbek futbol tarixida yangi bir shonli sahifa ochgani, shuningdek, Yangi O'zbekistonning jahon miqyosidagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, yosh avlodni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishidagi faol ishtirok etib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustosi” faxriy unvoni bilan

Ismoilov Islombek Murodbek o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi bosh murabbiysi

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Abdukurimov Miraziz Erkin o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi
Abdullayev Faridjon Nodirjon o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi
Abdumominov Azizbek Ikromjon o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi
Aliyev Asilbek Ravshanjon o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Baxodirxonov Muminxon Issoxon o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Botiraliyev Hojiakbar Xayrullo o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Yerimbetov Azizbek Muxammed Ali uli — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Izaskanov Baxadir Maxsetbayevich — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Maxmudjonov Dilyorbek Sanjarbek o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Muradov Amirxon Shuxrat o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Musaxanov Muhammadali Alijonovich — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Muhammadov Akbar Alisherovich — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Rustamjonov Ne'matulloh Shuhratjon o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Rustamov Jamshidbek Abrorjon o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Saidmurodov Behroz G'ayrat o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Sarsenbayev Nurbek Raxatovich — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Sodiqov Sayfiddin Baxtiyor o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Fazliddinov Abdulloh Zayliddin o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Xakimov Muhammad Ulug'bek o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Xasanov Sadridin Zayniddin o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Habibullayev Muhammad Qodirjon o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Shokirov Ibroxim Jamshid o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

Shukurullayev Abubakir Aziz o'g'li — Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

“Shuhrat” medali bilan

Djurayev Otobek Rustamovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Sport” ijodiy birlashmasi bosh mutaxassisi

Tolipov Orifjon Boxodirovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Sport” ijodiy birlashmasi “Futbol TV” telekanali muharriri

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 21-aprel

AZM-U SHIJOATLI YOSHLARIMIZ VATANNI SEVADI VA DUNYONI HAYRATGA SOLADI

O'n yetti yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida O'zbekiston terma jamoasi tarixiy g'alaba bilan Osiyo kubogini qo'lga kiritdi!



3



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

FUQAROLARNING VIJDON ERKINLIGI HUQUQI KAFOLATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASH HAMDA DINIY-MA'RIFIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQUISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Boshlanishi 1-betda

II. Diniy-ma'rifiy sohaning institutsional asoslarini takomillashtirish

4. Fuqarolarning ibodatlar va diniy rasm-rusumlarni amalga oshirishi uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish, "Haj" va "Umra" ziyoratlariga borishi bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish jarayonida ortiqcha byurokratik tartibotlarni bartaraf etish maqsadida Qo'mita va Raqamli texnologiyalar vazirligi 2025-yil 1-sentyabrga qadar "Haj va Umra yagona portalini"ni (keyingi o'rinlarda — Portal) hamda uning mobil ilovasini ishlab chiqish.

Belgilansinki:

a) Portal "Haj" tadbirlariga boruvchi fuqarolarning yagona elektron navbati hamda "Umra" tadbirlariga yuboriladigan ziyoratchilarning elektron ro'yxati shakllantiriladigan tizim hisoblanadi;

b) Portalda "Haj" va "Umra" faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va rasmiylashtirish bilan bog'liq jarayonlar raqamlashtiriladi;

v) vazirlik va idoralar Qo'mita so'roviga ko'ra o'zining axborot tizimlari Portalga integratsiya qilinishini ta'minlaydi;

g) Qo'mita Portal faoliyatini moliyalashtirishga, texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashga, aloqador davlat va nodavlat tashkilotlar uchun foydalanish imkoniyatini yaratishga mas'ul davlat organi hisoblanadi;

d) Qo'mita "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish litsenziyasiga ega yuridik shaxslar hamda O'zbekiston musulmonlari idorasining Portalidan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Qo'mitaning O'zbekiston xalqaro islom akademiyasini O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi (keyingi o'rinlarda — Akademiya) etib qayta nomlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Akademiya islomshunoslik va dinshunoslik sohalarida mutaxassislarini hamda o'quv dasturi, qo'llanma va darsliklarni tayyorlashga ixtisoslashgan tayanch davlat oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilansin.

6. Quyidagilar Akademiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) islomshunoslik, dinshunoslik, din psixologiyasi, islom iqtisodiyoti, manbashunoslik, xalqaro munosabatlardan va ehtiyoj mavjud bo'lgan boshqa sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash;

b) ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni, ilm-fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini hamda yetakchi xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari tajribasi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlarini joriy etish;

v) vijdon erkinligi va konfessiyalararo bag'rikenglikni ta'minlash, radikalashuv, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish hamda diniy sohadagi davlat siyosatining asoslariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

g) diniy-ma'rifiy yo'nalishda ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr qilish, shuningdek, internet tarmog'ida ta'lim resurslarini joylashtirish va muntazam yangilab borish;

d) talabalarda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hissini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayoni hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish;

ye) mamlakatimizda va xorijda diniy sohada faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish.

7. Akademiya quyidagi huquqlar berilsin:

a) o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan yuqori malakali xorijiy mutaxassislar mehnatiga qo'shgan hisoblarini bozor konyunkturasi bilan kelib chiqib belgilash;

b) Qo'mita bilan kelishgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini tegishli yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilash;

v) talabalarining to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;

g) yetuk xorijiy mutaxassislarini jalb qilish hamda Akademiya vakillarini xorijiy ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalariga malaka oshirish va tajriba orttirish uchun yuborish;

d) o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish.

8. Belgilansinki, Akademiya o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushadigan mablag'larning yetishmagan qismi davlat oliy ta'lim muassasalarini saqlash uchun ajratilgan mablag'lar doirasida tasdiqlangan budjet parametrlariga tegishli o'zgartirish kiritish orqali qoplanadi.

9. Qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi hamda Oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirligining O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazini Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) sifatida qayta tashkil etish haqidagi taklifga rozilik berilsin.

Belgilab qo'yilsinki:

a) Institut islomshunoslik, dinshunoslik, davlat va din munosabatlari asoslari, shuningdek, radikalashuvning oldini olish yo'nalishlarida diniy sohada mutaxassislarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga mas'ul muassasa hisoblanadi;

b) barcha ta'lim tashkilotlarining islomshunoslik va dinshunoslik fanlari o'qituvchilarining malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash Institut tomonidan amalga oshiriladi;

v) ta'lim jarayoni sifatini oshirish hamda ta'lim va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida Institut so'roviga asosan darslarga tegishli vazirlik, idora, ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlarining rahbar xodimlari va mutaxassislari jalb etiladi;

g) Institut qayta tashkil etilayotgan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining huquq va majburiyatlari, shuningdek, tuzilgan shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

10. Akademiya qarashli Toshkent shahri, Yunusbod tumani, Zarbuloq ko'chasi, 14-uy manzili bo'yicha joylashgan yotoqxona binosi operativ boshqaruv huquqi asosida Institutga bepul o'tkazilishi ta'minlansin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu binoni saqlash uchun O'zbekiston xalqaro islom akademiyasiga 2025-yil uchun ajratilgan budjet mablag'larining qoldiq qismini Institutga o'tkazib bersin, 2026-yildan boshlab esa binoni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni Institutning xarajatlari smetasida rejalashtirib borsin.

11. Qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi hamda Buxoro viloyati hokimligining Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi muassisligida Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish va quyidagilarni uning asosiy vazifalari etib belgilash to'g'risidagi takliflari ma'qullansin:

a) buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik tariqati allomalarning yuksak insonparvarlik g'oyalarni ilmiy asosda o'rganish, yosh avlodni bag'rikenglik

hamda o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida targ'ibot ishlarini olib borish;

b) tasavvuf ta'limoti tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyatini ilmiy tadqiq etish, "Yeti pir" allomalari va aziz avliyolarning boy ilmiy-ma'naviy merosini xalqaro maydonda keng targ'ib qilish;

v) naqshbandiylik ta'limotining ezgu g'oyalarni tadqiq etish uchun ilmiy-nazariy va uslubiy masalalarga bag'ishlangan anjuman, konferensiya, ko'rgazma, seminar-trening, tanlovlar hamda boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish;

g) tasavvuf ta'limotining ilmiy asoslangan g'oyalarni targ'ib qilish, soxta tariqatchilikning oldini olish bo'yicha tavsiylar ishlab chiqish.

12. Qo'mita va Akademiyaning O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini Vazirlar Mahkamasi bo'yisuviga o'tkazish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi islomshunoslik yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni hamda din bilan bog'liq jarayonlar bo'yicha tahlillarni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilansin.

13. Quyidagilar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining qo'shimcha vazifalari etib belgilansin:

a) Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi buyuk alloma ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni o'rganish, jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga yetkazish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish, mamlakatimiz hududida ro'y bergan Birinchi va Ikkinchi Renessansning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy poydevorini yaratishda ishtirok etish;

b) islom dinining insonparvarlik mohiyati, ma'rifiy-madaniy roli va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda o'rganish va keng otmaga, jumladan, xalqaro jamoatchilikka yetkazish;

v) diniy ta'lim muassasalariga ilmiy-tadqiqot va o'quv-uslubiy masalalarda hamda pedagog kadrlar va diniy xodimlarning malakasini oshirib borishda amaliy yordam ko'rsatish;

g) ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini saqlash, yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan

asrashga qaratilgan strategik ahamiyatga ega loyiha va tashabbuslarni ishlab chiqish.

14. Diniy-ma'rifiy sohadagi tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirib borish maqsadida doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi Diniy-ma'rifiy sohada ta'lim, fan va ilmiy-tadqiqotga oid faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda — Muvofiqlashtiruvchi kengash) tashkil etilsin va uning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki:

a) Muvofiqlashtiruvchi kengash diniy-ma'rifiy sohada ta'lim, fan va ilmiy-tadqiqot ishlarining barcha jarayonlarini muvofiqlashtirish masalalariga mas'ul bo'lgan maslahat organi hisoblanadi;

b) Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi vazifasini Qo'mita amalga oshiradi;

v) Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan O'zbekistonda islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Akademiya va boshqa diniy-ma'rifiy muassasalarning ta'lim va ilmiy-tadqiqotga oid faoliyatini muvofiqlashtiriladi;

g) Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisleri har chorakda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

15. Quyidagilar Muvofiqlashtiruvchi kengashning asosiy vazifalari etib belgilansin:

a) "Uchinchi renessans — Yangi O'zbekiston" g'oyasi asosida buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosida ulug'langan vatanparvarlik, bag'rikenglik kabi umuminsoniy g'oyalarni aholi orasida keng targ'ib etish yo'nalishlarini belgilash;

b) diniy-ma'rifiy sohadagi muassasalar faoliyatini chuqur o'rganib borish, o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar, innovatsion ishlanmalarni tatbiq etish hamda ilmiy va uslubiy faoliyatini muvofiqlashtirish;

v) soha tashkilotlarida to'plangan ilmiy-uslubiy ishlanmalar va tajribalarni tahlil etish asosida ulardagi ta'lim mazmunini takomillashtirish va muvofiqlashtirish, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqishda uzviylik tamoyillarini ta'minlash;

g) respublikaning barcha ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bajariladigan diniy

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 21-aprel



Mamlakatimizda mahalla institutining jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash, tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirish, moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilanib, qo'shimcha kuch va imkoniyatlar taqdim etilyapti, vakolat ham, mas'uliyat ham quyi tizimga tushirilmogda.

Natijada mahalla har bir oila, inson muammosi, dard-tashvishiga chuqur kirib bora oladigan xalqchil tuzilma sifatida yanada faollashdi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori iborat "mahalla yetitiligi" tashkil qilinib, yagona jamoa sifatida ishlash tartibi joriy etildi. Bugun 9452 ta mahallada "mahalla yetitiligi"ning 57 mingdan ziyod a'zosi faoliyat yuritilmogda.

O'tgan davrda "mahalla yetitiligi" tomonidan aholini ish bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, jinoyatchilikning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oilalarda tinchlik-totuvlik va hamjihatlikni targ'ib etish maqsadida keng qamrovli ishlar qilindi. Jumladan, ularning bir yillik faoliyati davomida qariyb 5000 ta mahalla jinoyatchilik, 3000 ga yaqini oilaviy ajralish, 1795 ta mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylantirildi. Aholi murojaatlarining qariyb 80 foizini mahallaning o'zida hal etish tizimi yo'lga qo'yildi.

OCHIQLIK VA OSHKORALIK ASOSIDA SAYLANADIGAN OQSOQOLLAR MAHALLALARNING HAQIQIY VIJDONIGA AYLANADI

Bundan tashqari, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida qiynalgan, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash, ulardagi ishsizlar bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ish qilinayapti. Bu yo'nalishda birgina 2024-yilda O'zbekiston mahallalari uyushmasi, mahallalar ko'magida 754 mingdan ziyod ishsiz fuqaroning bandligi ta'minlandi, 194 mingga yaqini tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi, 472 mingdan ortig'iga kredit va 48,2 mingga subsidiya ajratildi. 165 ming 729 kishi, jumladan, 69,6 ming xotin-qiz va 96,1 ming yosh kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitildi.

Sayxunobod, Zarbdor, G'ijduvon, Uychi tajribasi asosida xonadonlarda tomorqadon qo'shimcha daromad olish tizimi yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy daftarlarga kiritilgan qariyb 228 ming yurdoshimizga mo'ddiy yordam berildi.

O'tgan yili Samarqandda aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o'rni bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro anjumanida mamlakatimizda mahalla tizimida erishilayotgan ana shunday o'ziga xos natijalar alohida e'tirof etildi. Bu boradagi milliy tajribamiz o'rganish va keng targ'ib etishga loyiq deb topildi.

Shunday xayriy ishlar bardavom bo'lishi va yangi bosqichga ko'tarilishida mahalla tizimida ishlayotgan har bir mutaxassisning o'rmi bor. Xususan, mahalla raislari faoliyati bu borada muhim o'rin tutadi. Shu bois,



mahalla oqsoqoli lavozimiga munosib nomzodlarni saylash va ular faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish doimiy e'tibordir. "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiq, mahalla fuqarolar yig'ini raislarining vakolat muddati 5-yilga uzaytirilgan zamirida ham ana shunday maqsad mujassam.

Joriy yil may-iyul oylarida bo'lib o'tadigan mahalla raislari saylovini yangicha

demokratik tamoyillar asosida, ochiqlik va oshkoralik, fuqarolarning xohish-irodasini erkin ifoda etish prinsiplariga xos tarzda o'tkazish bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.

— Qonunchilimizga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, mahalla raisi saylovini o'tkazish muddatini belgilash Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengisi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahri kengashlari vakolatiga o'tkazildi, —

raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalar huzurida shtablar faoliyati yo'lga qo'yildi.

9452 ta mahalladagi ishchi guruhlarining ish samaradorligini oshirish maqsadida har bir mahallani saylovga oid targ'ibot materiallari hamda nomzodlar va saylovga oid ma'lumotlar stendi bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

14 ta hududda mahalliy kengashlar sessiyasi o'tkazilib, mahalla raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri komissiyalari hamda chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. 208 ta tuman (shahar) kengashi sessiyalari qarori bilan fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari tasdiqlandi. Mahalla raisi saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha 9452 ta mahallada fuqarolar yig'inlari vakillar yig'ilishlari qarori bilan ishchi guruhlar tasdiqlandi.

Adliya vazirligi bilan birga joriy yil fevral-mart oylarida ko'maklashuvchi komissiyalar va ishchi guruhlar a'zolari o'qitildi. Shuningdek, ularning faoliyatini samarali tashkil qilish bo'yicha qator uslubiy tavsiya va qo'llanmalar, saylovni tashkil etish va o'tkazish borasida ishchi guruhlar uchun eslatmalar ishlab chiqilib, hududlarga yetkazildi.

May-iyul oylarida bo'lib o'tadigan saylovlarda ishchi guruhlar tomonidan 208 ta tuman (shahar) ko'maklashuvchi komissiyasi qarori bilan 9452 ta mahallada vakillar soni belgilandi. Saylovda 2 million 600 mingga yaqin vakil ishtirok etishi kutilmogda.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



AZM-U SHIJOATLI YOSHLARIMIZ VATANNI SEVADI VA DUNYONI HAYRATGA SOLADI

O'n yetti yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida O'zbekiston terma jamoasi tarixiy g'alaba bilan Osiyo kubogini qo'lga kiritdi!

Navqiron futbolchilarimizning raqib jamoa maydonidagi matonatli o'yini, tarixiy g'alabasini kuzata turib Hazrat Boburning ushbu bayti yodimga tushdi:

"Bahor ayomidur, dag'i yigitlikning avonidur, Ketur, soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur".

Bu baytda hazrat soqiyga xitob etib, eng toza may — muhabbatdan qalblarga quy, bahor bayrami, yigitlikning zamonidir, deydi. Ya'ni bahor uyg'unlash va yangi hayot debochasi. Bu zamon — yigitlik davrida qalblar muhabbatga to'lsin, deydi. May timsolidagi muhabbat ilohiy ishq ekanini yaxshi ma'lum. Zero, qalbi — Allohda, qo'li — mehnatda bo'lgan xalqimiz buni yaxshi anglaydi. Yuragida ana shunday muhabbat bo'lgan kishigina futbolchilarimiz kabi qahramonlik qila oladi. Axir mitti mayyasi, insonlarni, yuru osmonni, muhimi, vatanni sevmay turib qahramon bo'lish mumkin emas!

Prezidentimiz futbol bo'yicha o'n yetti yoshgacha bo'lgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolariga yo'llagan tabrigida ularning qahramonligini bunday e'tirof etdi: **"Sizlar kabi navqiron, azmu-shijoatli yoshlarimizning butun turnir davomida bironta ham mag'lubiyatga uchrasmad, rekord natija ko'rsatib, jonjon Vatanimiz sharafini mardona himoya qilganlari, hech shubhasiz, milliy futbolimiz tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan shonli voqea, desak, to'g'ri bo'ladi".**

Toshkent aeroportida muzaffar futbolchilarimiz keng jamoatchilik vakillari, sportchilarning ota-onalari, yaqinlari ishtirokida tantanalik kutib olindi.

Tantanalik tabrigida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning futbolchilarimizga yo'llagan tabrigini o'qib eshitirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi departamenti rahbari O.Abdurahmonov Prezidentimizning tegishli farmoni bilan sportchilar va ularning murabbiyi, futbol targ'iboti yo'lida fidoyilik ko'rsatib kelayotgan sport shaharlovchilari davlatimizning yuksak mukofotlari — "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustosi" faxriy unvoni, "Kelajak bunyodkori" va

"Shuhrat" medali bilan taqdirlanganini e'lon qildi.

Farmon bilan futbol bo'yicha O'zbekiston U-17 terma jamoasi bosh murabbiysi Islombek Ismoilov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustosi" faxriy unvoni, futbolchilarimiz esa "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlandi. Shu bilan birga, bosh murabbiyga Prezident sovg'asi — Chevrolet Equinox va yosh futbolchilarimizga Chevrolet Cobalt rusumli avtomobillar topshirildi.

Tantanalik tabrigida so'zga chiqqanlar bugun yurtimizda sportga, xususan, yoshlar futboliga katta e'tibor qaratilayotganini e'tirof etdi.

Tantanalik tabrigida O'zbekiston Respublikasi sport vaziri A.Ikromov, Milliy olimpiya qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari O.Umarov, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi raisi B.Qurbonov, Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Sa'dullayev, Toshkent shahar hokimi Sh.Umurzakov va boshqa mutasaddilar ishtirok etdi.

Tan olish kerak, raqib maydoni — Toif shahridagi "Qirol Fahd" stadionida o'tgan o'yinda g'alaba qozonish oson bo'lmadi. O'yinning birinchi bo'limi tugashi arafasida terma jamoamiz vakillari ikkita qizil kartochka oldi. Oqibatda jamoamiz ikki o'yinchi kam bo'lib musobaqani davom ettirishga majbur bo'ldi. Bu yigitlar uchun haqiqiy sinov edi. O'sha onlarda futbolchilar o'rnida o'zini tasavvur qilib ko'rdim. Butun dunyo — o'rindiqlarni to'ldirgan muxlislarning katta qismi, hushtagini dam-badam chalib yo'l ko'rsatmoqchi bo'layotgan hakam va unga ko'makchi bo'lgan bayroqdorlar ham menga...yo'q, bizga qarshi turgan edi. Aksiga olib, kuchli deya e'tirof etiladigan (sportda kuch nisbiy tushuncha!) raqib jamoada 11, bizda 9 o'yinchi. Shunday lahzalarda nima yordam beradi, qanday kuch g'alaba sari yetaklaydi?! Albatta, muhabbat! Bobur bobomiz atamish ilohiy ishq — shu yer-u osmonga, muqaddas vatanga muhabbat!

Ana shu muhabbat hosilasi bo'lgan qahramonlik sabab terma jamoamiz ikki bora raqib darvozasini ishg'ol etdi. Muhammad Hakimov, Sadridin Hasanov ushbu gollarning muallifi bo'ldi.



Kubokning final bahsigacha bo'lgan yo'l ham shunchaki bosib o'tilmadi. O'zbekiston terma jamoasi ilk o'yindan toki finalgacha shonli yurish qildi. Vakillarimiz nihoyatda ajoyib natijalarni birma-bir qo'lga kiritib bordi. U-17 yosh toifasidagi terma jamoamiz

dastlab guruh bahsalarida Tailand termasini 4:1, ikkinchi turda Xitoyni 2:1 hisobida mag'lub etdi. Shu tariqa Qatarda o'tkaziladigan jahon chempionatiga yo'llanma naqd bo'ldi.

Guruh bosqichining so'nggi turida o'smirlarimiz Saudiya Arabistonini 3:0 hisobida, chorak finalda esa BAA terma jamoasini 3:1, yarim finalda KXDR termasini 3:0 hisobida yengdi. Bunday natija finaldagi keladigan raqib jamoani sergak torttirgani rost. Ana shu sergaklik sabab o'yinchilarimiz turli bosimlarni boshdan o'tkazdi.

"Ey millat ko'ksida ungan lolalar, Haqiqat sinmagay, garchi bukkildi. Bu shunchaki kubok emas, bolalar, O'yinga o'zbekning ori tikildi!"

Shoir Zohidjon Olov rost yozdi. O'yinga millatning ori tikilgan edi. Azaldan boshini tik tutib, orini himoya qilgan millat bolalari ajdodlarga munosib avlod ekanini ko'rsatib qo'ydi. Ayni damda yangi O'zbekistonda yosh iste'dodlar kuchga to'lib kelayotganini yana bir karra dunyo ahliga eslatib qo'ydi.

Prezidentimiz terma jamoamizga yo'llagan tabrigida **"El-yurtimiz sizlarning timsolingizda doimo oldinga intilib yashaydigan, yuksak marralarni zabt etishga qodir yangi O'zbekiston yoshlarining eng yorqin vakillarini ko'radi va sizlar bilan haqli ravishda faxrlanadi"**, dedi.

Shu o'rinda haqli savol tug'ildi: inson, ayniqsa, navqiron avlod qalbidagi yurtga muhab-

bat qanday paydo bo'ladi? Ha, inson, umuman, tirik jon borki, uyiga intilib yashaydi. Uni yaxshi ko'radi. Shu jihatdan vatanparvarlik tug'ma bo'ladi deb qarash mumkin. Ammo yana bir o'zgarish qoida bor: jamiyat turfa qarash va tafakkuridagi insonlardan tarkib topadi. Ularning aksari esa tuyg'ulardan uzoqlashib, o'tkinchi narsalar atrofida o'rallashib qolishi ham rost. Shu bois, inson qalbi tarbiyalanadi. Ana o'sha tarbiya sabab yoshlar vatanparvarlik ruhida kamol topadi.

Keyingi yillardagi o'zgarishlar, inson qadri uchun amalga oshirilgan islohotlardan ana shunday ezuq maqsad ko'zlangan. Ushbu tarixiy o'yin tufayli mamlakatimizda sportga, xususan, futbolni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yana bir amaliy natijasini ko'rdik. Bundan tashqari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham alohida e'tibor berilmoqda. Ularning bandligini ta'minlash uchun qilinayotgan ishlar, tadbirkorlik niyatidagi yigit-qizlarga berilayotgan imtiyozlar ham shular jumlasidan. Axir foydali yumush bilan band inson qalbidagi bekorchi o'ylarga, yot g'oyalarga o'rin qolmaydi. O'rni kelganda vatanparvar, elga madadkor yoshlarni kamol topirishda kitobxonlikka katta e'tibor berilganini ham e'tirof etish kerak.

Prezidentimiz tashabbusi bilan kitobxon yoshlarga avtomobil sovg'a qilish an'angasi aylandi. Bundan tashqari, oliy ta'limdagi o'zgarishlar-chi! Ta'lim korpusiyadani xoli sohaga aylantirildi. Oliy ta'limning qamrovini oshdi. Ayni damda xorijda tahsil olayotgan yoshlar safi kengaydi. Bunday ijobiy o'zgarishlar hamon davom etmoqda. Masalan, yaqindagina nufuzli xalqaro fan olimpiadalari g'oliblariga to'lanadigan mukofot miqdori 5 barabarga oshirildi. Bularning barchasi yoshlar qalbidagi erangi kunga ishonch uyg'otadi. Ana shu ishonch xotirjamlik baxsh etadi. Bunday sokinlik qalbgaga quvvat berib, ezuq o'ylarga eshik ochadi.

Ha, vatanparvarlik degan ulug' tuyg'u ana shunday ezuq ishlarining jamlanmasi o'laroq shakllanadi. Yosh futbolchilarimizning g'alabasi misolida yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlarni kamol topayotganiga yana bir karra amaliy bo'ladi!

Boboravshan G'UZIDDINOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

G'ALABA ZAMIRIDA YUKSAK E'TIBOR VA MEHNAT TURIBDI

To'lagan ISOQOV, O'zbekiston futbol faxriylari kengashi raisi:



Mamlakatimizda futbol faqatgina sport turi emas, balki butun jamiyatni birlashtiradigan, yosh avlodni tarbiyalaydigan, millat itifoxini namoyon etuvchi yuksak qadriyatga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda yurtimizda futbolni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan muhim qarorlar, zamonaviy infratuzilma yaratilishi ushbu qadriyatning amaliy ifodasidir.

Yaqinda Saudiya Arabistonida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo kubogi O'zbekiston futbolining so'nggi yillarda qanday salmoqli yo'l bosib o'tayotganini, yurtimizda futbolchi yoshlarni tarbiyalash tizimi qay darajada to'g'ri shakllanayotganini yana bir bor namoyon etdi. Islombek Ismoilov bosh murabbiyligidagi o'smirlar terma jamoamizning har bir o'yini nafaqat futbol ishqibozlarini, balki butun millatni yagona maqsad yo'lida birlashtirdi, barchaga quvonch va iftixor bag'ishladi.

Kuchli deb e'tirof etiladigan jamoalarni mahorat bilan mag'lub etgan futbolchilarimiz nafaqat jismonan, balki ma'nadan va taktik jihatdan ham jahon maydonlarida to'p surishga tayyor ekanini ko'rsatdi. Qariyb bir oy davom etgan Osiyo kubogi bahslarining so'nggi — hal qiluvchi o'yini Saudiya Arabistonini O'zbekiston terma jamoalari o'rtasida kechdi. Bu o'yin yigitlarimiz uchun haqqoniy iroda sinovi bo'ldi, desam adashmayman.

Futbol nuqtayi nazaridan og'ir palla — ikki futbolchimiz maydondan chetlatilgan vaziyatda jamoamiz ruhi sinmadi, aksincha, yanada jipslashdi, har bir futbolchimiz o'zini millatimiz, bayrog'imiz

oldida mas'ul deb his etdi. Aynan shu mas'uliyat g'alabani ta'minlagan asosiy jihatlardan bo'ldi, deysizga asosimiz bor.

Shaxsan men futbol ichida ulg'ayib, yashayotgan inson sifatida mazkur g'alabada mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tiborning hisssasi katta deb bilaman. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur sohada tarixiy ahamiyatga ega hujjat bo'ldi. Bu qaror orqali futbol infratuzilmasi, murabbiy va hakamlar tayyorlovi, iqtidorli yoshlarni saralash va tarbiyalash, zamonaviy tajribalarni joriy etish borasida mustahkam asos yaratildi. Adolatni tiklashga qaratilgan bunday islohotlar Ravshan Ermatov, Odil Ahmedov kabi jonkuyar mutaxassislarimizning tashabbusli g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini berdi.

Darhaqiqat, U-17 yosh toifasidagi O'zbekiston terma jamoasi o'z o'yini, intizomi, texnikasi va katta g'alabalarga intilishi bilan nafaqat chempionlikka munosib, balki Osiyoning eng nufuzli futbol maktablari qatorida ekanini yana bir bor isbotladi. Darvozabon Ne'matulloh Rustamjonov — Osiyo kubogining eng yaxshi darvozaboni, Asilbek Aliyev — eng yaxshi to'purar, Sadridin Hasanov — turnirning eng yaxshi futbolchisi sifatida e'tirof etilishi ana shu yuksak jamoaviy mahoratning natijasi bo'ldi.

Oldinda — Qatarda bo'lib o'tadigan jahon chempionati. Bu musobaqa futbolchilarimiz uchun yana bir ulkan imkoniyat. O'smirlarimiz oldida dunyo maydonlarida vatan sharafini himoya qilish mas'uliyati turibdi. Shu fursatdan foydalanib, yigitlarimizga ulkan zafarlar tilab qolaman. Hamisha bayrog'imiz baland, yuzimiz yorug' bo'lsin!

66 Guruh bosqichining so'nggi turida o'smirlarimiz Saudiya Arabistonini 3:0 hisobida, chorak finalda esa BAA terma jamoasini 3:1, yarim finalda KXDR termasini 3:0 hisobida yengdi. Bunday natija finaldagi keladigan raqib jamoani sergak torttirgani rost. Ana shu sergaklik sabab o'yinchilarimiz turli bosimlarni boshdan o'tkazdi.



BU — JASORAT, MATONAT NAMUNASI

Islombek ISMOILOV, O'zbekiston U-17 terma jamoasi bosh murabbiysi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustosi:



— Avvalo, O'zbekiston xalqiga chiroqli g'alaba muvofiq bo'lsin. Ha, ushbu mundial chindan ham yurtodoshlarimizga, millionlab futbol ishqibozlariga ajoyib futbol zavqini berdi. Ayniqsa, final bahsi... Saudiya Arabistonida kechgan butun chempionat bir bo'ldi, finalda yigitlarimiz ko'rsatgan jasorat, yangi O'zbekiston g'oyasidan shakllangan jamoaviy birlik, taslim bo'lmaslik, kurashuvchanlik va natijada qit'ada tengsizlik, g'oliblik sururi bir bo'ldi.

Ha, jamoamiz ushbu musobaqa doirasida o'z oldiga qo'ygan, butun O'zbekistonlik kutgan maqsadga erishdi. Bu g'alaba zamirida juda ko'pchilikning mehnati yotibdi. Avvalo, Prezidentimiz sportga, jumladan, futbolga alohida e'tibor qaratayotganini ta'kidlashni istardim. Aeroportdagi tantanalik kutib olish marosimi, ayniqsa, davlatimiz rahbarining jamoamizga yuksak e'tibori va ehtiromi — U-17 terma jamoasi a'zolarini mukofotlash to'g'risidagi farmoni bizga katta ishonch, jahon chempionatida MUNOSIB ishtirok etishimiz uchun so'nmas kuch bag'ishlaydi.

Shuningdek, O'FA rahbariyati, xalqaro aloqalar va terma jamoalar bo'yicha jamoamiz uchun mehroqat sifatida har bir insonga minnatdorlik bildiramiz. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan shu kunga qadar biz uchun juda ko'p yig'inlar tashkil etildi, xalqaro turnirlarda ishtirok etishimiz uchun barcha sharoit yaratib berildi.

Vatanimiz doimo qahramonlar, mard insonlar yurti bo'lgan. Buni futbolchilarimiz yana bir bor maydonda ko'rsatib berdi. Finalda fantastik o'yin bo'ldi, bu, shubhasiz, jasorat, matonat namunasi. Yigitlarga rahmat aytaman, ular imkonsiz vazifani bajardi.

Hissiyotlarimizni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Oldinda bizni yanada muhim turnir kutmoqda. Jahon chempionatida ham yurtimiz sharafini munosib himoya qilamiz.

ORZU ORZULIGICHA QOLMAYDI

Sadridin HASANOV, O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi hujumchisi, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi:



— Avvalo, bu g'alaba bilan barcha yurtodoshlarimizni tabriklayman. Chempionlik faqat bizning emas, butun yangi O'zbekiston xalqining yutug'idir.

Albatta, bu yergacha yetib kelish oson bo'lmadi. Bolaligimda televizor qarshisida o'tirib, futbol bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarni kuzatar, futbolchilar o'ynayotgan maydonda to'p tepishni orzu qilardim. Men ham ulardek chempion bo'lishni xohlardim.

Harakat qilsa, orzu orzuligicha qolmas ekan. Mana bugun o'zim tengi yoshlar bilan Osiyo chempioni bo'ldik. Bu musobaqa uchun 3-yil tayyorgarlik ko'rdik. Shu vaqt mobaynida bizni qo'llab-quvvatlagan, sharoit yaratgan, ishonch bildirgan barchaga minnatdorlik bildiramiz.

Turli mamlakatlardan kelgan har bir jamoaning yagona maqsadiga chempionlikni qo'lga kiritish edi. Raqib jamoalarda nufuzli klublar

tarbiyalanuvchilari ham bor edi. Mana shunday kuchli jamoalarga qarshi kurashib, mag'lubiyatsiz g'alabaga erishishimizda murabbiylarimizning yo'l-yo'rig'i va xalqimizning ishonchi, eng muhimi, yurtimizda sportga qaratilayotgan e'tibor natijasida paydo bo'lgan jamoaviy birlik hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi deb o'ylayman.

Final biz uchun kutilmagan tasodiflarga boy bo'ldi. Ikkita qizil kartochkadan keyin 2 o'yinchi kam bo'lib qolsak ham to'xtamadik. Vatanimiz uchun, millionlab muxlislarimiz uchun oxirigacha kurashdik. O'ylaymanki, bizga bildirilgan ishonchini oqladik. Gol urgan vaziyatimga kelsak, ichimdan nimalar o'tganini ta'riflay olmayman. Bizni qo'llab-quvvatlagan barcha-barchaga ko'pdan ko'p rahmat.

Turnirning eng yaxshi futbolchisi deb topilganimdan juda xursand bo'ldim. Jamoadoashlarimiz — Ne'matulloh Rustamjonovning eng yaxshi darvozabon, Asilbek Aliyevning eng yaxshi to'purar deb e'tirof etilishi ham quvonarli. Aslida, bunday nomga har bir jamoadoashim loyiq.

Endigi maqsad — noyabrda Qatarda bo'lib o'tadigan jahon chempionatida zafar quchish. Bu maqsad yo'lida biz borimizni beramiz. Nasib qilsa, yurtodoshlarimizning ishonchini oqlaymiz.

YANGI MAQSADLAR SARI RUHLANTIRADI

Ravshambek ODILOV, Asilbek Aliyevning otasi:



— Bu yil yurtimiz sporti uchun unutilmas voqea ro'y berdi — o'smirlarimiz Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan U-17 Osiyo kubogida zafar quchib, butun xalqimiz qalbiga quvonch ulashdi. Ushbu g'alabaga farzandim Asilbek Aliyev ham hissa qo'shgani, jamoamiz tarkibida yurtimiz sharafini munosib himoya qilgani ota sifatida men uchun beqiyos faxr.

Mamlakatimiz sport sohasidagi islohotlar, ayniqsa, bolalar va o'smirlar o'rtasida jamoaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar samara beryapti. O'g'limning hayotdagi ilk muvaffaqiyati, yuksalish yo'lidagi dadil qadamlari bevosita ana shu

imkoniyatlar mevasidir. Shu o'rinda Prezidentimizning yosh avlodning kamolotiga qaratayotgan e'tibori biz — otanalardan uchun ham katta rag'bat ekanini ta'kidlashni istardim.

Asilbekning futbolga bolaligidan mehr qo'ygani, mashg'ulotlarga shoshilib yo'l olishi, har bir mag'lubiyatdan saboq chiqarib, yana maydonga intilishi menga o'sha paytlardanoq katta g'alabalar bo'lib tuyulardi. Biroq bu haqda unga har doim ham aytavermas edim. Uni iloji boricha qo'llab-quvvatlashga harakat qilardim.

Ammo faqat oila tarbiyasining o'zi yetarli emas deb o'ylayman. Bu natijalar zamirida yurtimizda bolalar sport maktablari,

murabbiylarga qaratilayotgan e'tibor turibdi, desak to'g'ri bo'ladi.

O'smirlar terma jamoamiz Osiyo chempionatidagi har bir o'yinda jonbozlik va hamijhatlik namoyish etdi. Chempionlikdan keyin shu yigitlardan birining otasi sifatida farzandim timsolida nafaqat g'alabadan xursand, balki yurt nomini yuksaltirish mas'uliyatini his etgan yigitni ko'rdim.

Shubhasiz, o'smirlarimizning bu g'alabasi ularning boshqa tengdoshlarini ham yangi umid, yangi maqsadlar sari ruhlantiradi. Bunday zafar ota-onalarga bolalarining orzusini qo'llab-quvvatlash, yosh avlodga ishonish qanchalik muhim ekanini yana bir bor namoyon qildi.

Ota sifatida farzandimning g'alabasidan faxrlanaman, ammo bu faxr shaxsiy emas, balki yurtimizda yaratilgan imkoniyatlar, g'amxo'rlik va e'tibordan minnatdorlikdir. Farzandlarimizning toleli hamisha porloq bo'lsin!

Tamaddun



Qadimda Osiyo va Yevropani bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining savdo markazi, madaniyat o'chog'i bo'lgan Samarqand, Buxoro, Urganch kabi shaharlarimiz nomi bashariyatga ko'plab olim-u fuzalolarni yetishtirib bergani, tarixiy obidalar bilan ham tarix zarvarqlariga bitilgan.



“UCHUVCHI” DO‘STIM VATANGA QAYTMOQDA

YOXUD YANGI TOSHKENT SHAHRIDAGI O‘YLAR

Albatta, har zamonning o'z tosh-tarozisi bor. XXI asr insoniyat tarixida iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan va texnologiyada erishilgan ulkan yutuqlari bilangina emas, turli iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy-siyosiy buhronlari bilan ham yodda qoladi.

mintaqamizda ham chinakam ilm-ma'rifati va madaniyat markaziga aylinishiga katta hissa ko'rsatgan deb ishonaman. Ular qadimda o'z yo'liga kelajak avlodga katta meros, ilm-ma'rifati maydoni sifatida qolishini nazarda tutgan edi.



bizni, farzandini ko'rib ketadi. Inson uchun eng katta buyuk — to'rt ko'z tugallik, xotirjamlik... Haydovchining gurungi bilan olis yo'limiz bir qadam bo'ldi. Sherigim mashinadan tushib qurilish maydoniga kirmay, o'g'lini kutish joyida qoldi.

ratsiya masalasiga bog'lasak. Bir vaqtlar xorijga chiqib ishlash aksariyat odamlar uchun iqtisodiy muammolarning yagona chorasi edi. Maktab o'quvchilaridan ortiq haqida so'rala, aksariyati chetga chiqib ishlamoqchi ekanini aytardi.



ularning hayotida takrorlanmaydi, bu o'g'li-qizlar yurti rivoji uchun javlon uradigan, zamonaviy dunyoning yangi kasblarini mukammal biladigan insonlar bo'lib kamolga yetadi, degan orzular g'uj'g' edi xayolimda.

Dunyodagi mana shunday murakkab vaziyatda yurtimizda ulkan islohotlar, qadim zamonlarda bo'lgani kabi takrorlanmas buniyodkorliklar amalga oshirilayotgani kishini ikki karra mamnun etadi. Albatta, bu ishlar o'z natijasini beryapti. Yurtodoshlarimizning farovonligiga xizmat qilayapti.

Eng muhimi, bu shahar ekologik toza, milliy va dunyoviy me'morchilik namunalari o'zida mujassam etishi bilan ham ahamiyatli. Mazkur qurilishning yana bir jihati borki, uni aytmasdan jim turib bo'lmaydi.

Xudo bizga bir o'g'il berdi. Uch yildan ortiq muddat xorijda ishladi. Unga "O'z uying — o'lan to'shaging, shu yerda ishlaver", deb qayta-qayta aytishimga qaramay, odamlarning gap-so'ziga qiziqib, chet elga ketib qoldi.

otasi xorijga ketganidan so'ng Obid darslarda kam qatnashadigan bo'ldi. Asosan qishloqdagi sherkatlari bilan kimningdir o'choq-ayvonini qurib bersa, yana kimningdir tomo'raq yumushlari bilan andamon bo'lardi.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

XORIIGA BORIB ISHLASHGA ZARURAT BO'LMAYDI



Bugun Andijonda ham barcha sohalarida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ayniqsa, bir paytlar paxta xomashyosi yetishtirishdan boshqa imkoniyati bo'lmagan tuman va shaharlar, chekka-chekka hududlarga sanoat jadal kirib kelayotgani barchamizni quvontiradi.

O'ZIMIZ MEHNAT MIGRANTLARINI ISHGA TAKLIF QILAMIZ



oilalarning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlashda yaxshi samara beryapti. Shu kunlarda bu boradagi ishlar davom ettirilib, ishsiz va xorij migratsiyasidan qaytgan yoshlardan 30 nafariga 15 sotixdan yer berildi.



Masalan, viloyatimizda bugungi kunda 11 mingdan ziyod sanoat korxonasi bor. Bundan tashqari, hududlarda 47 ta sanoat zonasi tashkil etilgan. Ularda 2,3 trillion so'mlik mingta loyiha amalga oshirilib,

o'tgan yig'ilishda davlatimiz rahbari bu borada erishilayotgan natijalarni tahlil qilib, oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Xususan, viloyatda ishsizlikni bartaraf etish, aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirishda har bir imkoniyatdan unumli foydalanish lozimligi qayd etildi.

Aholi bandligini ta'minlashda tumanimizda sanoat hududi tashkil etilgani ayni muddao bo'lmog'da. Hozir u yerda turli yo'nalishlar, jumladan, to'qimachilik sohasi rivojlanayapti.

Yoshlarning ana shunday talab va qiziqishlarini inobatga olib, tadbirkorlik va bandlik bo'yicha yangidan yangi mikroloyihalar ustida ishlayapmiz. Joriy yilda bu borada belgilangan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish orqali 100 dan ortiq yangi ish o'ni yaratishni ko'zlayapmiz.

Davlatimiz rahbari viloyatimizga tashiri asnosida iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiyani ko'paytirish, yo'l, transport, qurilish va boshqa infratuzilmalarni rivojlantirish, hududlarning turizm salohiyatidan unumli foydalanish va boshqa yo'nalishlarda belgilab bergan vazifalar o'z vaqtida amalga oshirilishi ko'zlagan ana shunday maqsad va rejalarimiz ro'yobga chiqishi, mahallalarimiz yanada obod, hayotimiz yorug' va nurafshon bo'lishida keng istiqbolga ochildi.

Ziyoda JUMABOYEVA, Paxtaobod tumani "Soy" mahalla fuqarolar yig'inidagi hokim yordamchisi



Tashabbus Marg'ilon shahridagi "Tuyagum" mahalla fuqarolar yig'ini qushlar bilan tillashayotgan hudud sifatida ko'pining e'tiboriga tushgan. Sababi bu yerdagi aholi o'z xonadonida noyob va nodir sayroqi qushlarni parvarishlab, ko'paytirish orqali daromad topish, oila farovonligini ta'minlash borasida o'ziga xos tajribaga ega.

Ne'matjon Rustamov mahsi tikuvchi hunarmandlar sulolasining beshinchi avlod vakili. Shu bilan birga, noyob va nodir qushlarni parvarishlash, ko'paytirishda ko'pga namuna. Xonadonda bo'lgan kishi shoxdan shoxga qo'nib, sayrayotgan qimmatbaho qushlar chiroyidan bahra oladi.

kerak emas. Ammo mahallamizdagi qushlar savdosi uchun bozor yo'q. Aksariyat qushlar poxtaxt bozorlarida ikkilamchi mijozlar orqali sotilaypti. Bu ish o'zimizda yo'lg'a qo'yilib, daromad va eksport salmog'ini oshirish chorasini ko'ryapmiz.

Ko'hna Marg'ilonning Tuyagum mahallasida boshlangan ishlar qo'shni mahalla va hududlarda ham ommlashmoqda. Jumladan, Qo'shtepa tumanidagi "Loysan" mahalla fuqarolar yig'inida "mahalla yetiligi" ibratli ishga bosh bo'ldi.

Masalan, oddiy amadinka qushi 13 kunda 6-7 tagacha polapan ochadi. Bir juft qush 150 ming so'mdan sotilaypti. Jo'ja ochildish mavsumi erta ko'klamdan boshlanib, noyabrga qadar davom etishi hisobga olinsa, daromad salmog'ini chamalash qiyin emas.

— Qush boqish murakkab ish emas. Ozigina e'tibor, mehr tufayli ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu ishini boshlaganlarimizga ko'p bo'lgani yo'q. Dastlab 20 juft to'tiqush olib kelgandik.

— Qushlarni parvarishlash jarayonida ishlab topilayotgan daromadning asosiy qismi kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyaga muhojot oilalarni qo'llab-quvvatlash va qushchilik faoliyatini kengaytirishga sarflanmoqda.

— Har bir ishga, avvalo, mehr, qiziqish bo'lishi kerak, — deydi tadbirkor. — Bu ishning etagidan tutib kam bo'lmadi. Farzandlarimizni o'qitdik, uyli-joyli qilyapmiz. Ayni kunda faoliyatni olib kelib mahalliy tashabbus orqali izlayapmiz.

— Qush parvarishi mahallamizning drayveriga aylanib bormog'da, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Shuhratjon Xoliqov. — Hozir 100 dan ortiq xonadon bu ish bilan shug'ullanib, daromad topyapti. Qushlar parvarishi uchun ortiqcha joy, xarajat

— Qushlarni parvarishlash jarayonida ishlab topilayotgan daromadning asosiy qismi kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyaga muhojot oilalarni qo'llab-quvvatlash va qushchilik faoliyatini kengaytirishga sarflanmoqda. — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Husanboy Ahmadaliyev.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri Sherozod Qaraboyev olgan suratlar.

“KELAJAKKA QADAM”

YOSHLAR UCHUN ULKAN IMKONIYATLAR DASTURI

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish jarayoni ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunda ta'lim tizimi, mehnat bozori va ish beruvchilar o'rtasida uzviy hamkorlik muhim rol o'ynaydi.



Narzullo OBLMURODOV, iqtisodiyot fanlari doktori

yo'riqlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Tashkilotlar “tajribasiz xodimlar”ni ishga qabul qilishni istamaydi, shuningdek, biznes g'oyalarni hayotga tatbiq etishda yoshlarda zaruri sarmoya yetishmaydi.

Shu bois, biznesni boshlash, biznes reja tuzish, bozor tahlili kabi asosiy bilimlarni shakllantirish, yoshlar o'z g'oyalarni amalga oshirishi bo'yicha maslahatchilar — inkubatsiya va akseleratsiya markazlari faoliyatini tashkil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yurtimizda yoshlar bandligini ta'minlash, oliy ta'lim tizimi bitiruvchilarining mehnat bozoriga integratsiyasini kuchaytirish masalalari doimiy diqqat markazida bo'lib kelmokda. Prezidentimizning 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori bilan xususiy sektor va tijorat banklari ishtirokida kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish va bitiruvchilarni ishga joylashtirishga ko'maklashish maqsadida “Kelajakka qadam” dasturi qabul qilindi.

Ushbu qaror ijrosi yuzasidan joriy yilning 20-mart kuni “O'zmiilybank” AJning “Kelajakka qadam” markazi va Toshkent davlat agrar universiteti o'rtasida hamkorlik kelishuvi imzolandi. Bu bilan universitetning o'z biznes g'oyalarni amalga oshirish istagidagi bitiruvchi

bosqich talabalari uchun bank tomonidan biznes g'oyani tayyor loyihagacha olib borish jarayonida to'liq hamrohlik qilish imkoniyati yaratildi.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish va ilm-fan bilan iqtisodiyot integratsiyasini kuchaytirish maqsadida Toshkent davlat agrar universitetida “Kelajakka qadam” markazi tashkil etildi.

Mazkur markaz orqali bitiruvchi talabalar biznes g'oyalarni shakllantirish, puxta loyihalash va qulay moliyaviy shartlar asosida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu yo'lga ularga “O'zmiilybank” AJ tomonidan to'liq maslahat va moliyaviy ko'mak ko'rsatiladi. Markazda tadbirkorlik, moliya, agrotexnologiya, raqamli iqtisodiyot va boshqa yo'nalishlarda seminar, trening va mahorat darslari o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, ushbu markazda universitetning bitiruvchi va quyi bosqich talabalari o'rtasida sohalar bo'yicha ochiq



tanlovlar o'tkazish hamda g'oliblarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish, bunda salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar, yirik korxonalarining oliy ma'lumotli mutaxassislariga ehtiyojini aniqlash va mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni shakllantirish amaliyoti tashkil etiladi. Tanlov g'oliblarini ish beruvchi tashkilotlar buyurtmasiga ko'ra individual kasbiy ta'lim

“Kelajakka qadam” shunchaki dastur emas, balki O'zbekiston yoshlariga o'z salohiyatini to'liq namoyon etish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash, tadbirkorlik va innovatsiyani rivojlantirish yo'lidagi strategik ahamiyatga ega hujjatdir.

dasturlari asosida kasbga tayyorlash tadbirlari moliyalashtiriladi. Individual kasbiy ta'lim dasturlarida ishlab chiqarish obyektlarida amaliyot o'tash va chet eldagi oliy ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli o'quv kurslarida qatnashish imkoniyati yaratiladi.

Universitetimizda laboratoriya mashg'ulotlari, tajriba xo'jaligi hamda ishlab chiqarish obyektlarida talabalarining amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish

hamkorlikda esa uzumchilik va vinochilik bo'yicha tokzor barpo etilmoqda.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda oliy ta'lim sohasidagi imkoniyatlar va tashabbuslar mavzusidagi O'zbekiston — Malayziya ta'lim forumi doirasidagi kelishuvga muvofiq, Malayziya universiteti bilan hamkorlikda sholi navlari ekilmoqda. Xitoyning Shimoli-g'arbiy qishloq va o'rmon xo'jaligi universiteti bilan hamkorlikda esa intensiv olma bog'i yaratildi. Universitet ilmiy tajriba xo'jaligida zamonaviy texnologiyalar asosida yangi laboratoriyalar tashkil etilmoqda.

Joriy yil 15-aprel kuni universitetimiz bitiruvchilarining ishga joylashishini samarali tashkil etish, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasida mavjud bo'lgan o'rnlarni aniqlash, iqtidorli yoshlarni kasbiy va ilmiy tadqiqot ishlarga kengroq jalb qilish, ularning intellektual salohiyatini ro'yog'ga chiqarish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda bakalavriat va magistratura bitiruvchilari uchun “Karyera kuni” mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

Mehnat yarmarkasida asosiy kadrlar iste'molchilari — respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, yetitma vazirligi va ularning tizim tashkilotlari, agroklastlar, Germaniya, Xitoy va Janubiy Koreya tashkilotlari vakillari bilan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etdi.

Kadrlar tayyorlash sifati va talabalar bandligini oshirish, ularni amaliyot va ish bilan ta'minlash jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida “Karyera kuni” doirasida universitet va qator yetakchi tashkilotlar bilan

hamkorlik memorandumlari imzolandi. Mazkur kelishuvlar asosida bitiruvchilar malakasini amaliyotda sinovdan o'tkazish, ilmiy tadqiqot ishlarga jalb etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda tajriba almashish mexanizmlari shakllantirildi.

Tadbir davomida iqtidorli talabalarni rag'batlantirish uchun “O'zbekipaksanoat” uyushmasi, “IFODA AgroKimyoy Himoya” QK, O'simliklari karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan stipendiyalar taqdimotlari bo'lib o'tdi.

Joriy o'quv yilida Toshkent davlat agrar universitetini 2614 talaba tamomlashi kutilayotgan bo'lib, shulardan 903 nafari “Karyera kuni” mehnat yarmarkasi doirasida tuzilgan shartnomalar asosida ish bilan ta'minlandi. Bitiruvchi bosqich talabalarining yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bugungi kunga qadar talabalarimiz tomonidan shakllantirilgan 3 milliard 221 million so'mlik 78 ta biznes g'oya “Kelajakka qadam” markazi xodimlari bilan birgalikda loyihaga aylantirilib, ularning 10 tasini moliyalashtirish ishlari boshlandi.

“Kelajakka qadam” shunchaki dastur emas, balki O'zbekiston yoshlariga o'z salohiyatini to'liq namoyon etish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash, tadbirkorlik va innovatsiyani rivojlantirish yo'lidagi strategik ahamiyatga ega hujjatdir.

Ushbu tashabbus yoshlarni raqobatbardosh kadrlar etib tarbiyalashga, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ishtirokini oshirishga, texnologik va ilmiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda har bir yoshga teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Dastur orqali yoshlar o'z kelajagini faol ravishda qurish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyati, balki mamlakat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining ham muhim kafolatidir.

Kamolot pillapoyasi

Har bir uyg'oq jamiyat o'ziga zarur shaxsni, insonni tarbiyalaydi. Unga o'z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, kasbiy, huquqiy, madaniy va boshqa qator talablar qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishi ekanini hisobga olsak, kelajak odamini tarbiyalashda biz, avvalo, tilimizni, tariximizni, adabiyotimiz va san'atimizni yetarlicha o'rgatishning samarador yo'llarini topishimiz lozim. Uchinchi Renessans xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohaslarida yanada chuqurroq integratsiya qilish lozimligini uqtirmoqda.

“Kitobxonlik haftaligi” — tilimiz, tariximiz va adabiyotimizni birlashtiruvchi samarali yetti kun

Bularning barchasi negizida kitob o'qish va shu kitoblarni o'qish yotadi. Yoshlarning mutolaaga qiziqishini oshirish orqali istalgan sohada ustun kelish mumkin. Chunki mutolaaga asosiy ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni, kasbiy va kundalik bilimlarni, o'tmish va hozirgi madaniy qadriyatlarini, tarixiy hamda dolzarb voqealar haqidagi axborotlarni, betakror g'oyalarni o'zlashtirishning eng muhim usulidir. Asosiy, o'qish ona tilimizni saqlash va boyitishda eng kuchli mexanizmdir. Millatning aql-zakovati darajasi, taraqqiyoti va farovonligi barqarorligi, mamlakatning raqobatbardoshligi yosh avlodning jamiyatdagi o'qish darajasi va sifatini bevosita belgilab beradi. O'qirmanlar o'rtasida o'qish sifatini oshirishning asosiy vazifalari esa o'qish madaniyatini tarbiyalash, unga nisbatan qiziqishni oshirish hamda axborot madaniyatini rivojlantirishdir.

Joriy yilning 21-aprel kuni Toshkent shahridagi Simpoziumlar saroyida “O'zbekiston — kitobxonlar yurti” shiori ostidagi an'anaviy V respublika “Kitobxonlik haftaligi”ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar kitob mutolaasini keng ommalashtirish, aholi, xususan, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish davlat siyosati darajasida targ'ib qilinyotgani, mahalliy, shuningdek, xorijiy adabiyotlarni sifatli tarjima qilish, umuman, tarjima maktabini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilayotganini alohida e'tirof etdi.

Allaqachon an'anaga aylanib bo'lgan ushbu ajoyib haftalik barcha ijodkorlar va kitobxonlarga, soha mutaxassislariga ma'qul kelishiga shubham yo'q, — deydi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xo'jayev. — Biz mazkur kitob bayrami orqali yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini



yuksaltirishda kitobning roli va ahamiyatini kuchaytirish, o'zbek adabiyoti namunalarini xorijiy tillarga hamda jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha erishilgan yutuqlarni ommalashtirishni maqsad qilganmiz. Bunday tadbirlar noshirlar va ijodkorlarning zahmatli mehnatini kitobxonlarga taqdim etishga, yangiliklaridan

boxabar qilishga, ijodkorlar va kitobxonlar o'rtasida o'ziga xos ko'priklar bo'lishga zamin yaratadi.

Kitobxonlikka “mukkasidan ketish” odati vaqtinchalik qiziqish holatining bot-bot, bir necha bor takrorlanishi hamda rivojlanishi natijasida shakllanadi. Shaxsning asosiy ma'naviy intilishlari mutolaaga qiziquvchanlikni

keltirib chiqaradi. Kitobga qiziquvchanlik holatida unga baho berish munosabati shakllanadi. Demak, bundan muhim xulosa kelib chiqadi: yangi kitobxon qiziqishini shakllantirish uchun u mutolaadan huzurlanish vaziyatiga olib kirish kerak. Bugungi targ'ibotlarning tub ma'nosi ham shu — kitoblarni saralash yo'li bilan shunday vaziyatni qayta-qayta takrorlab, qiziqishning mustahkamlanishiga va barqaror holatga kelishiga yordam berish.

Prezidentimiz shu kungacha yurtimizda kitobxonlik muhitini yaxshilash, kitob o'qish va uning targ'ibotini zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan holda yangi bosqichga olib chiqish borasida juda ko'p topshiriqlar berdi, qarorlar chiqarildi. Ya'ni jarayon siz-z biz o'ylaganidan ko'ra ancha oldin boshlangan, uzoq vaqt pishirilgan. Samarasini, mana, ko'rishni boshlayapmiz, — deydi Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Dilnozaxon Kattaxonova. — Birgina yoshlarga kitob mutolaasi uchun qulaylik yaratadigan “Mutolaa” mobil ilovasini olaylik. Hozirgi kunda mobil ilovani umumiy yuklab olishlar soni 1,5 milliondan, o'qilayotgan kitoblar soni esa 5 milliondan oshdi. Zamonaviy kitobxonlikni rivojlantirish va yoshlarga turli sharoitlarda kitob mutolaasi uchun imkoniyat yaratish maqsadida kitoblarni raqamlashtirish yo'nalishida shu kunga qadar audioformatda

1667 ta, elektron formatda 1950 ta kitob “Mutolaa” mobil ilovasiga joylandi.

Bolalar adabiyoti “Mutolaa” loyihasing muhim yo'nalishi hisoblanadi. Loyiha qoshida yosh ijodkorlar maktabi tashkil etilib, ular tomonidan “Ildiz” to'plami ishlab chiqildi. To'plamdan ulug' ajdodlarimizning bolalik siymolari aks etgan 10 ta rasmlar kitob joy olgan bo'lib, jamoa 2025-yilda yana shuncha to'plam yaratishni o'z oldiga maqsad qilib olgan.

Loyiha doirasida 740 dan ortiq asar ilk bor, sifatlari formatda ovozlashtirildi. Bunday ko'rsatkich va natijadorlik hozirgacha audiokitoblar sohasida kuzatilmagan. Audiokitoblar 30 dan ziyod professional dublyaj aktyori, xalq artistlari tomonidan eng zamonaviy studiyalarda yaratildi.

“Kitobxonlik haftaligi” ham mana shunday o'nlab, yuzlab loyihalardan biri. Bunday manfaatli yig'ing'ing' barchasida faol qatnashgan inson har tarafmuna savodxonlikka erishgan, o'z huquq va qadriyatlarini bilgan fuqaroga aylinishiga shubha yo'q.

— Bola mansub jamiyatning o'zi kitob o'qishga moyil bo'lishi muhim. Qo'lga biror

marta kitob olmagan, ulardan faqat xontaxta tagiga taxlash uchun foydalanilgan odamning bolaga kitob o'qib, deb buyruq berishga hech qanday haqqi ham, asosi ham yo'q. Boisi, bir faylasuf aytgandek, ularni bizing gap-so'zlarimiz emas, xatti-harakatlarimiz tarbiyalaydi, — deydi jamoat faoli, jurnalist Shahobiddin Luqmon. — Kitob o'qiladigan xonadonlarda mutolaaga mehr qo'ygan bolalar kamolga yetadi. Albatta, bu mutlaq haqiqat emas. Kitobi yo'q uylarda ham kitobxonlar bor. Ammo bu holat hamma joyda, har doim ham sodir bo'lavermaydi. Aksariyat oilalarda vaziyat taxminan bunday bo'ladi: ona kun bo'yi uy-ro'zg'or ishlari bilan band, ortgan vaqtini qo'shni ayollar, dugonalar, tanishlar bilan hasratlashishga sarflaydi. Televizor, serial ko'rish, to'y-ma'rakalarda qatnashish va boshqalarga ajratilgan vaqt kitob o'qishga sira yetmaydi. Ota esa ishdan kechqurun kelib, ovqatlanadiyu bir oz televizor ko'rgandek bo'lib, so'ngra uxlashga kirib ketadi. O'qilgan kitoblarni muhokama qilish, qanday kitoblarni o'qish bo'yicha maslahatlar berish, afsuski, bugungi oilalarda juda kam uchraydigan holat. Mana shu real vaziyatni anglash, tarbiyasi, e'tibordagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ham, ayniqsa, yosh oilalar mana shunday kitobxonlik tadbirlarida, kitob taqdimotlarida qatnashishi shart.

“Kitobxonlik haftaligi” roppa-rosa yetti kun o'zini taftish qilishga, mutolaaning asl qiymatini tushunishga, farzandining kitobga e'tiborini taroziga solib, o'chib ko'rishga yetadi. Bu ham odatiy haftalardek o'tib ketadi, biroq u qoldirgan taassurot galdagi maqsadlar, niyatlar uchun yangi ilhom manbai bo'lib qoladi.

“Kitobxonlik haftaligi” Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrida parallel ravishda bo'lib o'tmoqda. Haftalik doirasida so'nggi yillarda nashr etilgan yangi kitoblar taqdimotlari, yosh va iste'dodli yozuvchi, shoirlar bilan uchrashuvlar, sohadagi dolzarb muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan yig'ing'ing' bo'lib o'tadi. 25-26-aprel kunlari esa Parkent ijod uyida bolalar va o'smirlar adabiyotini rivojlantirishga bag'ishlangan “Noshirlar va bolalar ijodkorlarining hamkorligi” mavzusida seminar tashkil qilindi.

Shuningdek, 25-27-aprel kunlari Toshkent shahridagi “Dream Park” istirohat bog'ida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlaridagi madaniyat va istirohat bog'larida “Noshirdan kitobxonga” tamoyili asosida kitob savdo yarmarkalari tashkil etish rejalashtirilgan.

Azizbek YUSUPOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Prezident tashrifidan so'ng

Yarim kecha. Issiq vagonidan tushganimizda Andijon temir yo'l vokzalida salqin havo tanga urildi. Charog'on ko'chalar sokin. Andijon ahli shirin uyquda. Hamkasblar bilan viloyat markazidagi biron yemakxonada zamaddi qilib olishni rejalashtirgandik. Biroq tamaddixonalarining barchasi yopiq. Bundan hech kim xafa bo'lmadi. Odamlari tong yorishmay uyg'onadigan shaharning tunlari shunday sokin bo'lishi kerak-da, dedi kimdir.



bayramiga xizmat qildi. Shu yo'sinda ma'rifiy islohotlarimizning yangi davri boshlandi.

— Yoshligimizda rahbarlar o'tishini bilsak, ko'chaga chiqib olardik. Uzoqdan ular o'tirgan mashinani ko'rib qolsak ham hayajonlanardik, — deydi 73 yoshli Abdumannon ota Bahromov. — Endi farzandimni qutlagan rahbarlarning o'zi uyimizga kelib turibdi.

Otaxon shu gaplarni aytayotgan quvonchdan ko'zi namlanadi. Uning hayajonga to'la ovozdin bizing ham ichimizda bir titroq uyg'ondi. Otaxon gapida davom etadi:

— Yo'lim tushib qaragam, Andijonimizdagi adirga imoratlar qurilibdi. O'sha yerga Prezidentimiz kelib, bu yemi Bobur shahri deb atask nima deysizlar, deganida ko'zimga yosh keldi. Juda ko'p chiroyli takliflar aytiladi. Ilohim, biz ham ko'raylik o'sha kunlarni. Ha, besh yildan keyin ko'ring bu shaharni. Hademay vaqt o'tadi. O'shanda bundan ham obod, fayzli manzilga aylanganini ko'rasiz. Kimlardir bu bo'lmagan gap, deyishi mumkin. Bunday odamlar har qachon, har zamonda uchraydi. Ammo ular bir siqimgina. Bu kunlarga shukrona aytilish kerakligini biladiganlar ko'p. Axir bu tinchlik, farovonlik o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q! Shuning uchun rahbarlar nima bo'lganda ham ko'pchilikka yoqyapmiz-ku deb ishlashi kerak.

Abdumannon ota farzandlarining barchasi o'qimishli va o'z ishi bilan band ekanidan xursand. Nabiralardan biri davlatimiz ko'magi tufayli AQShda o'qiyotgani haqida to'qinlanib gapirdi.

Haqiqatan, bugun ilm olish, yangiliklar yaratish uchun avvalgidek poytaxtda yashash shart emas. O'lis qishloq va ovullarda ham kuchli iqtidorlar kashf etilyapti. Ular davlatimiz rahbari bilan uchrashib, orzulari, maqsadlari haqida so'zlab beryapti. Andijondagi tadbirlarda ham shunday yoshlarning ko'pi ishtirok etdi. Biz bilan suhbatda ular yoshlarga qaratilayotgan e'tibordan kuch olayotganini aytdi. Ayniqsa, tibbiyot yo'nalishida o'qiyotgan yigit-qizlarning quvonchi cheksiz. Andijon davlat tibbiyot institutiga universitet maqomi berilgani ularga yana ko'p imkoniyatlar eshigini ochishi aniq. Tibbiyotda Andijon brendini yaratish bo'yicha barcha sharoit yetarli ekanini yoshlarni yangi-yangi marralarga undaydi. Umuman, viloyatda amalga oshirilishi belgilangan barcha vazifa yosh avlodning to'kis sharoitida yashab, ta'lim olishiga xizmat qiladi. Masalan, yangi marshrutlar va viloyat sharoitiga mos avtobus qatnovi yo'lga qo'yilishi ham yoshlar uchun manfaatli bo'ladi. Chindan ham viloyat markaziga ko'plab hududdan ishchilar qatori talabalar ham yungil mashinada keladi. Tirbandlik katta. Bu ularning vaqti va kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Jamoat transporti qatnovining tizimli yo'lga qo'yilishi shunday holatlarga baham beradi.

Yangi ish o'rinishi ko'rish, imtiyozli kreditlar ajratishni kengaytirish kabi xayrli ishlar ham yoshlarning hayotida o'rinni topib, o'ziga munosib sharoit yaratishiga xizmat qiladi. Shuningdek, yosh oilalarning iqtisodiy qatnovini cheklash yo'q. Ammo xonadon sotib olishini ham ta'minlaydi. Zero, qad ko'tarayotgan yangi uylarning egalari asosan, yoshlar bo'lishi tabiiy. Har bir farzandini uy-joyli qilib, zamonga mos sharoitda yashashni ko'rish — barcha ota-onaning orzusi. Shunday oilalar uchun qurilayotgan uylarning bolalar maydonchasi, sport majmualari bilan topshirilishi esa kelajagimiz vorislarining sog'lom kamolga yetishiga xizmat qiladi.

Bobur shahridagi zamonaviy sport kompleksi ham aholi salomatligi yo'lidagi sa'y-harakatlardan dalolat. Kuni kecha bu yerda ilk bor o'tkazilgan "Eco-Save Aral — 2025" xalqaro xayriya va ekologik ommaviy yugurish marafoni kelajakda tashkil etiladigan nufuzli sport tadbirlariga dobocha bo'ladi. Yaqin yillarda Bobur shahri "Yangi O'zbekiston" bog'iga keladigan mehmonlar Bobur bobomiz va avlodlari bunyod qilgan tarixiy obidalarning maketlaridan iborat tematik parkni ham ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Nasib qilsa, bog'da har yili o'tkaziladigan rassomlar festivalida minglab go'zal asarlar namoyish etiladi. Mo'yalam sohiblari-yu boshqa mehmonlar shunday ajdodimiz borligidan faxrlanib, uning yangi bog'dagi ulug'vor ramziga hurmat ila boqadi. Sayyohlar Andijon havosidan nafas olish nasib etganidan g'ururlanadi. Zero, shoh va shoir Mirzo Bobur orzu qilgan, unga armon bo'lgan Bog'ishamol shu bo'ladi, desak xato bo'lmaz!

Boburshunos olim, Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya rahbari Zokirjon Mashrabov bilan suhbat chog'ida bunga yana bir bor amin bo'ldik. Olimning aytishicha, Zahiriddin Muhammad Bobur Andijondan chiqib ketayotib, hozirgi Bog'ishamol tarafga yuzlanganida, bu qadrdon makon yuragini o'rtab, "Menga yana Andijon nasib etsa, shu yerda qasr qurayin", deb niyat qilgan ekan. Taassufki, Andijon unga qayta nasib etmadi. Bobur orzu qilgan o'sha qasr — Bobur shahri bugun Yangi O'zbekistonda bunyod etilyapti. Ulug'vor shaharni chinakam ma'rifaat va madaniyat markaziga aylantirish yo'lidagi ishlar boshlab yuborildi. Ajdodimiz qadami yetgan yurtlarga borib, u qurgan binolarni o'rganishga hozirlik ko'riyapti. Uning asl qiyofasini yaratish yo'lidagi izlanishlarga ham jiddiy kirishildi. Davlatimiz rahbari aytganidek, **Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoning qayerida, qaysi o'lkasida bo'lmasin, bir umr Vatan sog'inchi bilan yashagan. Bugun buyuk ajdodimizning arzonlari ushaldi, ul zot o'z yurtiga rahm qaytib keldi.**

ANDA NOMIM BOQIY ETGAN

Andijonim bor!

(Esse)



Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

va bandlik masalasi birlamchi ekanini ko'p ta'kidlaydi. Shu ma'noda, hududda mazkur masalaga jiddiy yondashilyapti. Jumladan, joriy yilda ham yirik investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Bu bilan, avvalo, aholiga qulay shart-sharoit yaratish, uy-joyga talabni qanoatlantirish maqsad qilingan.

Andijon shahridagi "Andijon yog'-moy" korxonasi 1950-yillarda qurilgan. Hozir faoliyat yuritmayotgan korxonaning 12 gektar maydonida qiymati 80 million dollarlik arzon va zamonaviy ko'p qavatli turar joy massivi hamda savdo-ko'ngilochar maskanlar qurilishi rejalashtirilmog'da. Bunday loyihalardan ko'zlangan maqsad ishlab chiqarish korxonalarini shahar chetiga olib chiqish hamda xorijiy investorlarni faol jalb qilishdir.

Bo'sh turgan yerlarda 3000 dan ziyod xonadonli 48 ta ko'p qavatli uy-joy, savdo majmuasi, ko'ngilochar maskanlar bunyod etilishi mamlakatimizda inson qatni birlamchi o'ringa chiqayotganiga ishora. Zero, buning ortidan 7500 oila uy-joy bilan ta'minlanib, 1000 ta doimiy ish o'rni ochiladi. Bobur shahridagi zamonaviy uylarda yashayotganlar singari bu



Bobur shahridagi zamonaviy sport kompleksi ham aholi salomatligi yo'lidagi sa'y-harakatlardan dalolat. Kuni kecha bu yerda ilk bor o'tkazilgan "Eco-Save Aral — 2025" xalqaro xayriya va ekologik ommaviy yugurish marafoni kelajakda tashkil etiladigan nufuzli sport tadbirlariga dobocha bo'ladi. Yaqin yillarda Bobur shahri "Yangi O'zbekiston" bog'iga keladigan mehmonlar Bobur bobomiz va avlodlari bunyod qilgan tarixiy obidalarning maketlaridan iborat tematik parkni ham ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Nasib qilsa, bog'da har yili o'tkaziladigan rassomlar festivalida minglab go'zal asarlar namoyish etiladi.

uylarda ham yosh oilalar emini-erkin istiqomat qiladi. Zero, Bobur shahrida aksariyati ko'p yillar bitta hovlida tiqilib qolgan oilalar baxtiyor yashayapti. Ularning nafaqat o'z uyi, yangi maktabi, bolalar bog'chasi, 250 kishiga xizmat ko'rsatadigan poliklinikasi bor. Shu yerda ishlashi uchun yungil sanoat korxonasi ham mavjud. Qolaversa, Bobur nomi bilan ataladigan ixtisoslashgan bog'cha, maktab, universitet, muzey, kutubxona va IT park kabilarining barpo etilgani insonni qadrlashning eng go'zal ko'rinishi emasmi!

Buni biz suhbatda bo'lgan ko'plab o'qimishli va tanti odamlar shukrona bildirib, endi Andijonda ham "Yangi O'zbekiston" bog'i borligi haqida to'qinlanib gapiryapti. Oltinko'liklar, buloqbohilgular izboskanliklar "Prezidentimiz bizing tumaniga keldi. Qilayotgan ishlarimizdan xursand bo'lib ketdi", deya g'ururlanib gapiradi. Qo'rg'ontepa va Xo'jaobod aholi tez orada chegaraga hududlar ham

obod bo'lib, sanoat zonasiga aylanishini aytib maqtanadi.

Xushhavo bog'dagi o'rindiqda nafas roslab, turfa gullardan zavqlanayotgan O'dinaxon aya Mamajonova Andijon tumanidagi Jevachi mahallasida.

"Mama shunday toza havoli joyda qurilgan shinam uylarga havasimiz kelyapti. Jiyanim shu yerda yashayapti. Hamma sharoit bor. Havosining tozaligini aytmaymizmi! Tog'ning havosidan qolar joyi yo'q. Yonida shunday katta, ajoyib bog'i bor uylar baxtli odamlarga nasib qiladi-da. Bu bog'ni barpo etganlar ham murosaga yetsin!" deya duoga qo'ng'ich o'chadi onaxon.

Chindan ham 4000 gektar maydonda barpo etilayotgan Bobur shahri ro'parasidagi 19 gektarli dalkusho "Yangi O'zbekiston" bog'ini ko'rgan, u haqda eshitganning qalbidagi havas uyg'onaypti. Viloyat markazidan uzoqda yashayotganlar "Shu bog' juda chiroyli

bo'libi-a? Televizorda ko'p ko'rsatyapti-da. Bir borib ko'rib kelsak bo'larkan", deb bir-birini ilhomlantiryapti.

Bog'dagi o'n ming tupdan ortiq manzarali daraxt ko'chati, buta va gullarni ekishda tajribali dizaynerlarning tavsiyasiga asoslanilgani shundoqqina seziladi. E'tiborlisi, bog'dagi giyohlar asosan, yong'ir suvi bilan to'yinadi. Sug'orish tizimi ham zamonga mos — tomchilatib suv beriladi. Isroillik, xitoylik hamkorlari bilan og'ir-indeklar bo'lib ketgan andijonlik yigitlar tomchilatib sug'orish texnologiyasining hadisini olgan. Endi bunday ishlar o'zlarini mustaqil bajarmog'da. Ishning chin ko'ngildan, to'g'ri bajarilishi ortidan esa hisdolorlik ortyapti. Andijonning yangi bog'idagi gul-u yulduz, daraxtlar shu holda tuproqqa mahkam o'mashsa, yashnab yashasa, yaqin yillarda juda go'zal manzara hosil bo'lishini ko'z oldimizga keltiradi.

Yetmish yoshni qarshilayotgan Zarifaxon aya Bobojonova bu yerda juda katta ish bo'lgani, qilingan mehnatlar aytishigagina oson ekanini ta'kidlab so'z boshladi.

Bir parcha tomorqamizni obod qilish uchun qancha ter to'kamiz. Gektar-gektar sariq tuproqqa suncha niholni o'tqazib, hayot baxsh etib qo'yishni aytgim. Shu yerda mehnat qilganlarga ming marta rahmat, — deydi onaxon. — Yangi uylarga yangi bog' juda yarashibdi. Bizing Xo'jaobodda ham adirga shunaga chiroyli uylar qurildi, qizim. Prezidentimizga rahmat.

Ha, yaxshidan bog' qoladi, deydi xalqimiz. Ertamiz egalari, Bobur izdoshlariga meros bo'lajak bu maskan ichki va tashqi turizmga ham munosib xizmat qiladi. Zero, shu kunlarda viloyatning turli hududidan bu yerga kelayotgan yurdoshlarimiz uzoq-yaqindagi qarindoshlarini ham yangi shaharga, shu bahona qizg'aldoq sayliga chorlamog'da. "Endi Andijon o'z mehmonlarini O'zbekistonning Shvetsariyasiga qiyoslanadigan Xonobodgagina emas, Bobur shahriga ham faxr-u g'urur bilan boshlab keladi", deydi yangi shaharliklar.

Darvoqe, endi xonobodlik aholining sayyohlikdan daromad topish imkonini yanada kengaytdi. Shahardagi Kampirovot mahallasidagi 92 gektar hududda turizm markazi tashkil qilinadi. Bu ham ayni muddao. Zero, Xonobod o'ziga xos tabiiy bilan ham sayyohlik rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan hududlardan. Prezidentimiz turizm markazlari Buloqbohidagi Shirmonbuloq, Xo'jaobodagi Toshota mahallalarida ham tashkil qilinsa, qo'shimcha 1 million sayyohini jalb qilish uchun barcha imkoniyat borligini aytib o'tadi.

Keyingi yillarda ushbu hududlarda sezilarli darajada iqtisodiy o'sish kuzatiladi. Korxonalar ko'payishi hisobiga aholining bandligini ta'minlash hajmi oshadi. Umuman, viloyatda

investorlar bilan keng ko'lamdagi hamkorlik hamda import o'rini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmog'da. Natijada o'tgan bir yilda viloyatda importbop mahsulotlari ishlab chiqarish qiymati 3,7 trillion so'mdan 7,5 trillion so'mga, ya'ni 2 barobar o'sishiga erishildi. Bularning barchasi o'z uylarida hayotda aks etgani uchun ham ular bu haqda yaxshi biladi. Farzandlari ishlari bo'lib, xonadoniga baraka kirayotganidan dalolat bo'ladi. Andijondagi yig'ilishda yangi O'zbekiston shukhi har bir tuman, har bir mahallaga kirib borayotgani qayd etildi. O'tgan yili viloyatda 4000 dan ziyod yangi tadbirkor ish boshlagan, 450 ming kishi ishlari bo'lgani aytiladi. Aslida, maqsad ham shu — islohot odamlarning kundalik hayotida aks etishi kerak. Shundaygina ular hayotdan rozi bo'lib yashaydi.

Andijon ahli boshqa hududlar aholisiga nisbatan ikki karra ziyod bosh qotirmasa, kam uxlab, ko'proq ishlamasa bo'lmaydi. Chunki aholisi zich, hududi kichik viloyatda yashash oson emas. Shu bois, u yerda bor imkoniyatdan unumli foydalanish, iqtisodiyotga ham ijodiy yondashuv talab etadi. Hozir viloyat aholisining daromadini oshirish, tuzum va paranda go'shtiga ehtiyojini qoplash maqsadida xonadonlarda hamda fermer xo'jaliklari hududlaridagi ariq, kollektor va zovurlarda o'rdak boqish loyihasi ishlab chiqilgan. Shu orqali go'sht va tuxumga ehtiyoj qoplanmog'da.

Bugun Andijon nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohada, balki san'at va madaniyat yo'nalishida ham yangi O'zbekiston ruhini o'zida jam etgan hududga aylanib bormog'da. Davlatimiz rahbari tashrifidan so'ng madaniyat vaziri uyuma-uy yurib, soha vakillari holidan xabar olganida bunyo o'zimiz ham guvoh bo'ldik.

Ular bu tashrifni odamlar rahbarlarni emas, rahbarlar odamlarni yo'qaladigan tizimning amaldagi bir ko'rinishi deya quvondi. Madaniyat va san'at xodimlari kuni Andijonda ko'tarinki ruhda o'tkazilganida ham ramziy ma'no bor. Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston" bog'ida so'zlagan nutqida **"Bobur shahri milliy madaniyat va san'atimiz, o'zbekona mehmondostlik, bag'rikenglik va hamkorlikni aks ettiradigan o'ziga xos ko'zu bo'lishi zarur. Mana shu zamonaviy amfiteatr sahnasida, mana shu go'zal bog'da xalqimizning nodir san'ati doimo namoyish etilib, ulug' shoirimiz she'rleri yangrab tursa, ayni muddao bo'ladi. Bu oqshom ushbu yangi madaniyat maskanida atqoli san'atkorlar va iste'dodli yosh ijrochilar ishtirokida bo'lib o'tadigan konsert dasturi shu yo'lda ezuq an'anani boshlab beradi, desak, to'g'ri bo'ladi"**, degan edi.

Buning isboti o'laroq bog'ning yangi sahnasi ilk bor madaniyat va san'at xodimlari



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 446.
36811 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 00:10